Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi mutaxassisi lavozimiga ochiq tanlov o‘tkazish to‘g‘risida E’LON

Ochiqlik va shaffoflik siyosatiga muvofiq “O‘zbekiston respublika valyuta birjasi” aksiyadorlik jamiyati ichki korrupsiyaga qarshi nazorat bo‘limi mutaxassisi lavozimiga tanlov e’lon qiladi.

Nomzodlarga qo‘yiladigan umumiy talablar:

• Yurisprudensiya, iqtisodiyot yoki moliya sohasida oliy ma’lumot;

• Komplayens, korrupsiyaga qarshi kurashish yoki ichki nazorat yo‘nalishida kamida 2-yillik ish tajribasi;

• O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligini bilish;

• Xavflarni tahlil qilish, tahliliy materiallarni tayyorlash qobiliyati;

• Ishbilarmonlik odobi, maxfiylik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

• Rasmiy yozishmalarni yuritish tajribasi;

• Ishbilarmonlik muloqoti va muzokaralar olib borishning mustahkam ko‘nikmalari;

• Maxsus kompyuter dasturlaridan foydalana olish;

• Ma’lumotni aniq va asosli tarzda yetkazish qobiliyati;

• Mas’uliyatlilik, jamoa bo‘lib ishlash qobiliyati;

• Chet tillarini bilish maqsadga muvofiq.

Malaka talablari:

• Microsoft Office dasturlaridan (PowerPoint, Excel va boshqalar) yuqori darajada foydalana olish;

• Korrupsiya holatlarini erta aniqlash va oldini olish, ularning sabab va sharoitlarini bartaraf etish;

• Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik madaniyatini shakllantirish;

• Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga mos keladigan yaxlit tizimni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish va takomillashtirish;

• Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik o‘rnatish;

• O‘zRVB xodimlarining huquqiy madaniyati va ongini oshirish orqali korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

• O‘zRVBda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha profilaktik tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta’minlash;

• Hisobotlar tayyorlash, statistik va tahliliy ma’lumotlarni tahlil qilish;

• Qonunchilik doirasida boshqa vazifalarni bajarish.

Tanlovda ishtirok etish shartlari:

• O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lish.

• To‘liq hujjatlar to‘plami: tarjimayi hol, pasport va diplom nusxalari, mavjud bo‘lsa – tavsifnomalar.

• Tanlov ochiq va teng huquqli asosda o‘tkaziladi.

<u>Tanlov bosqichlari:</u>

1-bosqich. Rezyumelarni saralash

Muddati: arizalarni qabul qilish yakunlangandan so‘ng 3 ish kuni davomida

• Taqdim etilgan rezyumelarning malaka talablariga mosligini tahlil qilish.

• Ikkinchi bosqichga o‘tgan nomzodlar ro‘yxatini tuzish.

2-bosqich. Sinovdan o‘tkazish

Muddati: 2 ish kuni ichida

• Mavzular: korrupsiyaga qarshi qonunchilik, etika, tahliliy fikrlash.

• O‘tish bali: kamida 70 foiz.

• Sinovlar oflayn shaklda o‘tkaziladi. Vaqt cheklangan.

3-bosqich. Yakuniy kasbiy suhbat

Muddatlar: test sinovlaridan so‘ng 3 ish kuni ichida

• Shakli: shaxsan yoki videoaloqa orqali.

• Ishtirokchilar: O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi vakili ishtirokidagi tanlov hay’ati.

• Baholash mezonlari: huquqiy bilimlar (shu jumladan O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligini bilish), tahliliy qobiliyat, muloqot ko‘nikmalari, motivatsiya.

• Natija: reyting tuzish va ishga qabul qilish to‘g‘risida qaror qabul qilish.

Nomzodni ishga qabul qilish (yoki rad etish) to‘g‘risidagi qarorni Hay’at suhbat yakunlangandan so‘ng keyingi ish kunida e’lon qiladi.

Ariza topshirish tartibi:

• Rezyume va ilova hujjatlarni quyidagi manzilga yuborish lozim: info@uzrvb.uz

• Arizalarni qabul qilish muddati - 2025-yil 16 aprel kuni (shu kun ham) gacha

Qo‘shimcha ma’lumotlar:

• Test va suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlarga elektron pochta orqali xabar beriladi.

• Barcha bosqichlar tanlov komissiyasi bayonnomalarida qayd etiladi.

• Barcha arizalar maxfiy tarzda ko‘rib chiqiladi.

• Faqat talablarga to‘liq javob beradigan nomzodlarning arizalari ko‘rib chiqish uchun qabul qilinadi.

Biz quyidagilarni taklif etamiz:

- O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksiga muvofiq rasmiy ishga qabul qilinish;
- Raqobatbardosh maosh;
- Martaba o‘sishi va ichki nazorat tizimini rivojlantirishda ishtirok etish imkoniyati;
- Butun tashkilot doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish strategiyasini amalga oshirishda qatnashish.